

O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi markaziy apparati xodimlari o`rtasida
O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti
va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarini
o`rganish soatlari to`g`risida ma`lumot

Tadbir davomida ishtirokchilarga ma`ruzachi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5700-sonli Farmoni haqida batafsil ma`lumot berdi. Ushbu Farmon bilan mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o`rni va faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolar yig`ini ishini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, sohaga malakali, boy hayotiy tajribaga ega va fidoiy kadrlarni jalb etish maqsadida ishlab chiqilgan. Farmonda murojaatlar bilan ishlashda **“mahalla-sektor-Xalq qabulxonasi-mahalla”** printsipti asosiy yo`nalish etib belgilangan. Fuqarolar yig`ini huzuridagi jamoatchilik komissiya-lari faoliyatini takomillashtirish maqsadida jamoatchilik asosida **fuqarolar yig`ini raisi o`rinbosari – ijtimoiy va ma`naviy-ma`rifiy masalalar bo`yicha maslahatchi** va **Fuqarolar yig`ini raisi o`rinbosari – tadbirkorlik, tomorqa yer egalari faoliyatiga ko`maklashish va obodonlashtirish ishlari bo`yicha maslahatchi** lavozimlari joriy etilishi va **“Keksalar maslahati” guruhlarini** tashkil etish nazarda tutilgan. Fuqarolar yig`ini va mas`ul kotiblari oylik ish haqi fondini 1,5 baravarga, xodimlarning ish haqini joriy yil 1 maydan 1,25 baravarga va 1 oktyabrdan 1,2 baravarga oshirilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) kengashlari hamda fuqarolar yig`inlari xodimlarini ularning vazifalari va faoliyat yo`nalishlari bilan bog`liq bo`lmagan yig`ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo`lmagan vazifalarni yuklash, shuningdek fuqarolar yig`inlari balansida bo`lgan binolarni boshqa shaxslarga biriktirish yoki asossiz ravishda olib qo`yish taqiqlanishi ko`rsatib o`tilgan.

Yig`ilgan ishtirokchilar tomonidan o`zlarini qiziqtirgan masalalar bo`yicha ma`ruzachi savollar berishdi hamda belgilangan muddatda va qiziqarli o`tkazildi.